

Kutlimuratov Allayar Abdusharipovich
Urganch davlat universiteti katta o'qituvchi
O'zbekistan

Кутлимуратов Алляяр Абдушарипович
старший преподаватель Ургенчского государственного университета
Узбекистан

XORAZM VILOYATI TOPONIMLARINING TURLARI VA ULARNI HOSIL QILGAN TABIIY GEOGRAFIK TERMINLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyati toponimlarining vujudga kelishiga ko'ra turlari yoritilgan. Shu bilan birga maqolada Xorazm viloyatidagi ayrim oronimlar hamda gidronilarning manosi haqida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: toponimlar, terminlar, tabiiy geografiya, fitonimlar, zoonimlar, geomorfonimlar, gidronimlar, foydali qazilmalarni bildiruvchi toponimlar.

ТИПЫ ТОПОНИМОВ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ И ФИЗИКО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ТЕРМИНЫ, КОТОРЫЕ ИХ ОБРАЗУЮТ

Аннотация: В этой статье рассматриваются типы топонимов Хорезмской области по происхождению. В то же время в статье также упоминаются некоторые оронимы и гидронимы Хорезмской области.

Ключевые слова: топонимы, термины, естественная география, фитонимы, зоонимы, геоморфонимы, гидронимы, минеральные топонимы.


TYPES OF NAMES OF THE KHORAZM REGION AND NATURAL GEOGRAPHICAL TERMS THAT FORM THEM

Abstract: This article discusses the types of toponyms of the Khorezm region by origin. At the same time, the article also mentions some toponyms and hydronyms of the Khorezm region.

Keywords: toponyms, terms, physical geography, phytonyms, zoonyms, geomorphonyms, hydronyms, toponyms denoting minerals.

Kirish. Xorazm viloyati O'zbekistonning shimoliy-g'arbiy qismidagi qadimiy Xorazm vohasining bir qismini egallaydi. Umumiy yer maydoni 6,1 ming km² ni tashkil etib, viloyat maydonning 74% Amudaryoning chap qirg'og'ida (4,5 ming km²), o'ng qirg'oqda 26% (1.6 ming km²) qismi joylashgan. Viloyat respublika umumiy maydonining 1,4 % tashkil etadi. Viloyatning geografik o'ri 40° 35'-42° 00' shimoliy kenglik va 60° 03'-62° 28' sharqiy uzoqlik oralig'ida, Turon pasttekisligida joylashgan. Viloyatning eng shimoliy chekka nuqtasi Gurlan tumani hududidagi Olchin qishlog'i yaqinidagi Nuranbobo to'qayiga to'g'ri kelsa,

janubiy chekka nuqtasi esa Tuproqal’adan bir muncha janubda joylashgan. Viloyat shimoli-g’arbdan janubi-sharqqa 280 km ga cho’zilgan. Viloyatning Urganch shahri joylashgan kenglikdagi g’arbdan sharqqa uzunligi 80 km atrofida. Viloyatning relyefi janubiy g’arbdan(85m) shimoliy sharqqa(198m) tomon ko’tarilib boradi.



I-rasm. Xorazm viloyatining rel'yef kartasi (SRTM malumotlari asosida muallif tamonidan ishlangan)

Joyning geografik o'rniga bog'liq holatda shaklangan nomlar.

Yer yuzasi relyefi, tuzilishi bilan bog'liq nomlar geomorfologik topoterminlar yordamida yuzaga keladi. Yer yuzasining turli shakllari joy nomlarining shakllanishiga sababchi bo'ladi. "Vaqt o'tishi bilan relyef o'zgarishi mumkin, lekin shu relyefni bildiruvchi nom qolaveradi." [1-13 b]

Viloyat toponimlari orasida *-obod, -qal'a* topoformatini ko'p uchratishimiz mumkin: Bekobod, Shohobod, G'ozobod, Bekobod, Yangiobod, Paxtaobod, Chinobod, Cho'lobod, Xayrobod, Xonobod, Qulobod, Mehnatobod, Ashaqqal'a, Bo'zqal'a, Doshqal'a, Ko'naqal'a, Chig'atoyqal'a, Shag'alqal'a, Sho'rqal'a, Yuqoriqal'a, Qoramanqal'a, Katqal'a, Ichanqal'a, Dishanqal'a va boshqalar.

Viloyat yer yuzasi tuzilishining asosiy qismi tekisliklardan iborat bo'lganligi uchun oronimlar nisbatan kam uchraydi. Xorazm viloyatida oronimik indikatorlar


qatoriga "jar", "tepa", "qum", "qir", "to'bijik", tumpak(dumpak)(kichik tepa) kabi so'zlarni kiritish mumkin. Shuningdek viloyatda o'y (oy) so'zi bilan chuqurlik va pastlik joylar ifodalanadi, hamda mahalliy shevalarida bu terminning o'ydiq, o'yhandaq, chuqalaq kabi turlari ham uchraydi. Ba'zi geomorfologik topoterminlar yordamida yasalgan toponimlarni keltirib o'tamiz: "jar" topotermini yordamida: Qiziljar, Echkijarko'l, Echkijar, Jarqishloq, Jarchilar va boshqalar; "tepa" termini yordamida: Hazorasp tumanidagi Qumtepa, Qoratepa, Oqtepa, Mingtepa, Oltintepa, Ko'ktepa(Go'ktepa), Qoraultepa va boshqalar; "qum" termini yordamida: Oltinqum, Yuqoriqum, O'rtaqum, Qumbadoq, Oqqum, Amirqum, Qumrabot, Vopqum, Qumyop, Qumoloqli, Oshoqqum, Chuqurqum, Qumonchilar va boshqalar; "qir" termini yordamida: Chingizniqiri, Ulli yoki Kichchi chingizniqiri, To'vshanqir va boshqalar; "to'ba" yoki "dapa" termini yordamida: Qo'shato'ba, Ullito'ba, Aqto'ba, To'bajiq, shuningdek "rosh", "chel" va boshqa shu kabi relyefning kichik ko'rinishiga oid mikroterminlar yordamida hosil bo'lgan joy nomlarni ham uchratish mumkin.

Viloyatning Xazorasp va Bog'ot tumanlarida Sharqiy Sho'rko'l, Xiva tumanida esa Shimoliy Arbusko'l, Qo'shko'pir tumanidagi Shimoliy Ko'rpko'l kabilar biror geografik obyektga nisbatan joylashgan o'rnini bildiradi. Urganch va Xonqa tumanlaridagi Chuqurko'l toponimi atrofdagi boshqa ko'llarga nisbatan chuqur bo'lgani bois shunday nomlangan. Xazorasp tumanidagi Chap sohil magistral kanali, Yangibozor tumanidagi O'ng sohil va Qo'shko'pir tumanidagi O'ng tarmoq kanallari ham obyektning joylashgan o'rnini bildiradi.

Bundan tashqari, professor Z.Do'simov Xorazm viloyati toponimlarini tarkibidagi belgi-xususiyati, tomon, o'rin va hajmni bildiruvchi indikatorlar mavjud ekanligini aytib o'tadi. Belgi-xususiyatni bildiruvchi so'zlarga "avat"(obod) termini orqali Gazavat(Gozobod), Shovot, Xiziravat, Amiravat, Qulavat nomlar shakllangan; tomonni bildiruvchi nomlarga, Xorazmda ufq tomonlari mahalliy shevadagi so'zlar orqali ifoda etiladi. Misol uchun *shimol* tomon *arqa-orqa* so'zi bilan(Orqaovul, Orqasolma, Orqaatiz, Arqali, Arqajam,

Arqa), *janub esa qibla* soʻzi orqali (Qiblaqayir, Qiblaovil, Qibla Tozabogʻ(Xiva shahri), hamda *gʻarb va sharq* tomonlarni ifodalash uchun esa *kunchiqar va kunbotar* soʻzlari ishlatiladi.


Viloyatning relyefi janubiy gʻarbdan shimoliy sharqqa tomon koʻtarilib borishini mahalliy aholi balan(baland) va pas(past) soʻzlarini, quyoshning chiqishi va botishi bilan bogʻlab, yuqori yoki baland-“kun chiqishi, yaʼni-sharq”, past yoki toʻman kunbotish, yaʼni-gʻarb” tomonini ifoda etishi va yoplarda suvning oqishi maʼnosida ham keng qoʻllaydilar. Shuning uchun viloyatda joyning oʻrinni bildiruvchi nomlarga Balandovil, Balandkoʻpir, Passalma(Pastsolma), Tomanovil, Yuqoriovil kabilarni, hajmni bildiruvchi Ulliqala (Kattaqalʼa), Ulliatiz (Kattadala), Ulli (Katta), Kichchikoʻl (Kichkkoʻl), Kichchiqala (Kichikqalʼa), Kichchiatiz (Kichikdala) kabi nomlarni ham uchratish mumkin. Xorazmda quyi yoxud past sozlari *ashaq* yoki *oyoq* shaklida uchratamiz. АШАҚҚАЛЪА, Оуоққишлоқ, Оуоқ(Qoʻshkoʻpir tumani), Oʻyilma(Gurlan tumani) va boshqa shu kabi nomlarni ham uchratamiz. Tumaloq koʻl, Uzunkol, Qiyshiqyap kabi gidronimlar obyektning shakli va tuzilishiga koʻra nomlangan.[3, 75-b]. Xorazm viloyatining tabiiy turlari bilan bogʻliqlik baʼzi toponimlarini quyidagicha tasvirlashimiz mumkin.



*Xorazm viloyatining tabiiy turlari bilan bogʻliqlik toponimlari 1-rasm
(Diagramma muallif tomonidan tuzilgan)*

Suv ob'ektlari bilan bogʻliq nomlar (Gidronimlar)

Xorazm viloyati Amudaryoning quyi qismida joylashganligi sababli gidronimlar nisbatan ko‘proqni tashkil etadi. Viloyatda uchraydigan gidronimlarni quyidagi xususiyatlariga qarab guruhlariga ajratishimiz mumkin:




*Xorazm viloyatidagi gidronimlarning xususiyatiga qarab guruhlarini 2-rasm
(Diagramma muallif tamonidan tuzilgan)*

Shu bilan birga Xorazm viloyati toponimlarini o‘rganish jarayonida faqat shu viloyatda uchradigan ba‘zi geografik terminlarni uchratishimiz mumkin. Xorazm viloyati gidronimlari tarkibida "*ko‘l*" topotermi yordamida hosil bo‘lgan joy nomlari ko‘p: Achchiqko‘l, Xalpako‘l, Sho‘rko‘l, Ashshaqko‘l, Chuqurko‘l (Urganch tumani), Aqdayko‘l, Boriyataqko‘l, Obilko‘l, Ulug‘sho‘rko‘l (Yangiariq tumani), Gavkko‘l, Dinakko‘l, Eshonko‘l (Xiva tumani), Dovutko‘l, Sho‘rko‘l, Toshliko‘l, Tuzloqko‘l (Qo‘shko‘pir tumani), Jarmishko‘l (Xiva va Yangiariq tumanlari), Oqko‘l (Xiva, Shovot, Yangiariq tumanlari), Suzaliko‘l (Xiva tumani), Tuzko‘l, Uzunko‘l (Xazorasp tumani) va boshqalar.

Akademik V.V.Bartold arna, *yap* (*yop*) so‘zlarini xorazmcha deb hisoblagan va “o‘ta, obdon yaxshi” ma’nosidagi qadimgi *arta* (*arda*) sifatida Xorazmning geografik nomenklaturasida tez-tez uchrab turadi deb yozgan [2,122-b]. Z.Do‘simovning fikricha, *arna* so‘zi *ar*-eroniy tillarda suv o‘zagi orqali yasalgan [3,69-b]. Shuningdek ko‘pgina gidronomik terminlarni jumladan: Amudaryodan suv *saqa* orqali *arnalarga* va undan *yoplarga* undan *badoq* deb atalgan o‘rtacha *ariqlar* orqali ajralib chiqishida uchratishimiz mumkin. Xorazmdagi ba‘zi mahalliy shevalarda ko‘pincha *badoqni* "*solma*" termini bilan ham yuritadilar. *Solma* Xorazmning sug‘orish tarmoqlari tizimida eng kichik suv yo‘li hisoblanadi. *Solma*

ikki xildir: *oyoq solma* va *chigir solma*. Umuman Xorazmda o‘zi oqar tarmoq “oyoqsu”, yoki suv oyog‘i, etagiga ya’ni suv solmaning nishabligidan kelib chiqib o‘zi oqadigan degan ma’noda. Chig‘ir solma faqat chig‘ir yordami bilan vjudga keltirilgan. Hozirda Chig‘irning nomi qoldi xolos, o‘rnida elektr va yoqilg‘i evaziga ishlaydigan naso‘slar yordamida suv chiqariladi va naso‘s solma iborasi ishlatiladi.

Viloyat toponimlari tarkibida gidronimlar nisbatan ko‘p uchraydi (1:200 000 masshtabli xaritasida *saqa, arna, yormish, yop, solma, ko‘l va yosqa* terminlarning umumiy soni 212 dan oshadi). Bu nomlarning 31 % ko‘l, 25 % yop, 4% kanal, 3 % arna, 3% solma topotermini yordamida hosil bo‘lgan.



Xorazm viloyatida shakillangan gidronimlarni hosil qilgan terminlarning ulishi 3-rasm (Diagramma muallif tamonidan tuzilgan)

Viloyat hududi o‘simlik turlari bo‘yicha juda kambag‘al hisoblanadi. Shunday bo‘lsa ham viloyatda asosan, aholi hayoti uchun zarur bo‘lgan, umuman ishlab chiqarish, hayot kechirish jarayoni bilan aloqador o‘simliklar turlarini va ular bilan bog‘liq nomlarni uchratishimiz mumkin. Daraxt turlari bilan atalgan nomlarga Gujum yoki Narvon, Erikbog‘ (O‘rikbog‘), Yakkatut, Tutbag‘i(Tutbog‘i), Go‘jatal (Go‘jatol), Qoratal(Qoratol), Beshgujum, Aqterak (Oqdarak), Ko‘kterak (Go‘kdarak), Go‘ja, Qiyshiqjiyda, Aqtut (Oqtut), Danatut; ekin turlari bilan bog‘liq fitonimlarga Arpabadiyan, G‘avusher (jo‘xori ekiladigan maydon), Yong‘irchqaatiz (beda ekiladigan maydon), Kandırli (kanop), Mashtaxta (Moshtaxta) (mosh ekilgan maydon) va hako زالarni ay tish mumkin. Amudaryo

daryosi va viloyatdagi mavjud ko‘llar atrofida yovvoyi o‘simliklar bilan bo‘g‘liq nomlar vujudga kelgan. [3,52-b]

Viloyatda o‘simlik bilan bo‘g‘liq nomlarni quyidagi guruhga ajratamiz: 1-жадвал

Manzarali daraxt	Mevali daraxt	Butalar	O‘t o‘simliklar	Poliz va sabzavotlar
Beshgujum	Erik(O‘rik)bog‘	Qoratal	Arpabadiyan	Qovun
Narvon(Gujum)	Angarik	Sazaq(Saksavul)	G‘avusher	Gurvak
Qaramon	Anjirbog‘	Yulg‘in	Yong‘irchqa	Bo‘rikalla
Darak(terak)	Aq(Oq) tut	Janggal	Aqvash	Xarmiz(Tarvuz)
Oqdarak(terak)	Danatut		Aqjugan	Gashiratiz
Go‘k(ko‘k) terak	Qoratut		Kandirli	Zamchaqariq (handalak)
Baqaterak	Shol(Shom) tut		Mashtaxta	
Yakkatut				

Amudaryo viloyatning shimoliy va shimoli-sharqiy tomonidan oqib o‘tadi va buyerda o‘ziga xos bolgan tabiat kompleksi-to‘g‘aylarni(to‘qay) vujudga keltirgan. Xorazmda to‘qayni to‘g‘ay deyishadi, Z.Do‘simov fikriga ko‘ra, to‘g‘ay asli turkiycha termin bo‘lib, o‘rmon, o‘tli dala, daryo bo‘yidagi o‘rmon, o‘tloq ma’nolariga ega [3,64-b]. Viloyat fitotoponimlari tarkibida turli yovvoyi o‘simliklar, daraxtlar, poliz ekinlari nomlarini uchratish mumkin. Ularga Arpabodiyon, Kandirli, Mashtaxta, Yilg‘inli, Qamishliq, va boshqa shu kabilar misol bo‘ladi.[4, 211-b]

Xulosa. Yuqoridagi ma’lumotlardan shuni bilish mumkinki, Xorazm viloyati toponimlarining turlari orasida tabiiy sharoitni o‘zida aks etuvchi toponimlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Viloyatda juda ko‘plab toponimlar faqat shu hududa uchraydigan va o‘ziga xos bo‘lgan “saqa”, “arna”, “yormish”, “yop”, “solma”, “ko‘l”, “yosqa”, “jar”, “tepa”, “qum”, “qir”, “atiz” va boshqa topoterminlar asosida shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Охунов Н. Жой номларининг таъбири. -Т.: «Ўзбекистон», 1994, 13-б
2. Бартольд В.В. Соченения Т II. -М.: 1963, 122-б.
3. Дўсимов З. “Хоразм топонимлари”. Тошкент. “Фан”. 1985,52-б.
4. Ҳакимов Қ. М., Миракмалов М.Т. Топонимика (дарслик) –Т.: 2020, 211-б.